qismlarini farqlashni qiyinlashtiradi. Biz murakkab sintaktik konstruksiya haqida so‘z yuritayotganimizni ko‘rsatadigan «ilovali komponentli konstruksiya» atamasini qo‘llashni taklif qilamiz, uning qismlaridan biri ilova qilinadigan bo‘lak orqali kiritilgan. Ushbu sintaktik kompleksning birinchi, asosiy qismi, V.Vinogradovning fikricha, «ilovala qism» deb ta’riflanadi, asosiy xabarni o‘z ichiga olgan to‘liq, rasmiy ravishda tugallangan jumla shaklida ifodalanadi. Sintaktik kompleksning ilovali qismga bog‘liq bo‘lgan ikkinchi komponenti, biz ilovali komponent deb nomlaymiz, bu komponent keyin hosil bo‘ladi [2;208-b.].

Asosiy qism (gap) allaqachon ma’lum bo‘lgani uchun uning ma’nosini tushuntirish, aytilganlarni umumlashtirish, baholash, unga munosabat bildirish, aniqlashtirish ilovali komponent (ilovali element) orqali amalga oshiriladi.

Bu sohada bir qator tilshunoslarning struktura jihatdan turli xil komponentlar ham birlashishi, ham ilova qilinishi mumkin degan fikrni ilgari suradilar. Ularning tadqiqot natijalari quyidagi ilovali komponent sifatida harakat qilishini tasdiqlaydi:

– komponentning alohida a’zolari;
– turli strukturali sodda jumlalar;
– qo‘shma gap bo‘laklari;
– murakkab gap qismlari;
– butun qo‘shma gaplar;
– butun murakkab jumlalar;
– turli tuzilmalarning ilovali komponentlari zanjirlari.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Shunday qilib, ilovali elementlar ilova komponentli konstruksiya tarkibida bajarib keladigan vazifalari orqali o‘zlariga xos xususiyatlarni o‘zlarida takrorlab kelib, berilayotgan fikrni mazmunan boyishiga, shuningdek, yangi o‘ziga xos xususiyatlar birbirlarini kengaytirib, tabir joiz bo‘lsa, izohlab kelishiga xizmat qiladi hamda sintaktik aloqa usulining birligiga asoslangan bu konstruksiyalarning umumiyligi va natijada turli tuzilmalarning ilovali komponentlari yagona mantiqiy-semantik mazmunini ifodalashdan iborat bo‘lgan funksional umumiylik mavjud, struktura ichidagi ilovali hukmning funksiyasi namoyon bo‘ladi. Ilova komponentli konstruksiya tarkibida ilovali elementlarning soddalik va murakkablik, sinonimlik va takrorlanish, ketma-ket joylashish xususiyatlari badiiy matnning ma’nosini kitobxonga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi va asarning mazmundorligini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy ifoda birikib kelayotgan ilovali elementlarning soni ikkitadan beshtagacha yetishi mimkin. Bu bilan bunday ilovali elementlarning soni chegaralanib qolmaydi. Ilovali elementlarning soni beshtadan ham ko‘proq bo‘lishi mumkin. Gapning dinamik va statik aspektlarini ifodalashda ilova komponentli konstruksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan dinamik va statik ilova konstruksiyalar mavjud bo‘lib, har ikkalasi ham sintaktik konstruksiyaning muhim struktur ko‘rinishini ifodalashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ванников А.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. М., 1979.

(2). Виноградов В.В. Об «открытых» или «сдвинутых» конструкциях в синтаксисе «Пиковой Дамы». Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. М., 1980.

(3). Иофик Л.Л. Сложное предложение в новоанглийском языке. Л., 1968.

(4). Сербина Т.Г. Парцелляция как особое синтаксическое явление в языке современных газет. Автореферат канд. дис., Воронеж, 1988.

(5). Сержан Л.С. Смысловое членение парцеллированных сверхфразовых единств современного французского языка (интонационносинтаксическое исследование). Автореферат канд. дис., М., 1973.

(6). Шмелев Д.Н. О значении синтаксических единиц. Инвариантные синтаксические значения и структуры предложения. М., 1969.

(7). Lakoff G. Irregularity in Syntax. New York, 1970.

(8). Qodirova D.M., Xalikova D.Y., Daminova M.Z. Theoritical Basis of Teaching English Grammar. M., 2021.

(9). Даминова М.З. Анализ сложных структурных структур компонентов применения. М., 2024.

Tursunova Matluba Xolmatovna (Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)

SOTSIOLINGVISTIKANING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Maqola sotsiolingvistikaning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan ilmiy fan sifatida rivojlanishiga bag‘ishlangan. Unda Aflotun va Aristotelning falsafiy qarashlaridan tortib zamonaviy nazariyalargacha bo‘lgan sotsiolingvistika shakllanishining asosiy bosqichlari ko‘rib*

chiqilgan. Uilyam Labov, Joshua Fishman, Ervin Goffman va Basil Bernshteyn kabi olimlarning til o'zgarishlari, ikki tillilik, til siyosati va muloqotning madaniy jihatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan asarlariga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistika, jamiyat, tadqiqot, bog'liqlik, hodisa, omil, munosabat, faoliyat.*

ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ СОЦИОЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. *Статья посвящена развитию социолингвистики как научной дисциплины, изучающей взаимосвязь языка и общества. Рассматриваются основные этапы становления социолингвистики, начиная с философских взглядов Платона и Аристотеля до современных теорий. Особое внимание уделено трудам таких учёных, как Уильям Лабов, Джошуа Фишман, Эрвин Гоффман и Бэзил Бернстайн, которые внесли значительный вклад в изучение языковых вариаций, двуязычия, языковой политики и культурных аспектов коммуникации.*

Ключевые слова: *социолингвистика, общество, исследование, связь, фактор, явление, отношение, деятельность.*

THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF SOCIOLINGUISTICS

Annotation. *The article is dedicated to the development of sociolinguistics as a scientific discipline that studies the interrelation between language and society. It examines the main stages of the formation of sociolinguistics, ranging from the philosophical views of Plato and Aristotle to contemporary theories. Special attention is given to the works of scholars such as William Labov, Joshua Fishman, Ervin Goffman, and Basil Bernstein, who have made significant contributions to the study of language variations, bilingualism, language policy, and the cultural aspects of communication.*

Key words: *sociolinguistics, society, research, communication, factor, phenomenon, attitude, activity.*

Kirish. Sotsiolingvistika tilshunoslikning muhim va qiziqarli sohalaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish til va ijtimoiy omillar (jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy sinfi va boshqa omillar) o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi. Til faqatgina aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki u jamiyatning madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy o'zaro aloqalarining bir qismi sifatida xizmat qiladi. Sotsiolingvistika bizning qanday qilib turli ijtimoiy vaziyatlarda turli xil til shakllaridan foydalanishimiz, shaxsiy va guruh shaxsiyatini ifodalashimiz hamda munosabatlarimizni qurishimizda tilning qanday ahamiyat kasb etishini tushunishga yordam beradi. Til va jamiyat o'rtasida yaqin aloqalar mavjud, ular bir-birini shakllantiradi va rivojlantiradi. Shunday qilib, sotsiolingvistika jamiyat va tilning o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan sifatida shakllangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sotsiolingvistikaning tarixi va rivojlanishiga ko'plab olimlar hissa qo'shgan. Ogüst Kontning ishlari jamiyatni ijtimoiy organizm sifatida tasvirlaydi va ijtimoiy strukturalarning tilga qanday ta'sir qilishini bilib olishga imkon beradi. U jamiyatdagi ijtimoiy tartib va funksiyalarni til bilan bog'lash g'oyasini ilgari surgan. Noam Xomskiy tilni aqliy fenomen sifatida talqin qilib, uning tuzilishi va universal grammatik qoidalarini o'rganadi.

Jakob Grimm o'zining fonetik qonuniyatlar va grammatik o'zgarishlarni o'rganish orqali tilning ijtimoiy muhit bilan qanday aloqada ekanligini ko'rsatib bergan. Uning ishlari tilni tarixiy rivojlanish va ijtimoiy kontekst nuqtai nazaridan o'rganishga asos bo'ldi. Vilgelm fon Gumboldt tilni jarayon sifatida ko'rib, uning ijtimoiy va madaniy kontekstlar bilan bog'liqligini tushuntiradi. U til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berib, tilshunoslikka falsafiy yondashuvni joriy etgan. Uilyam Labovning asari tilning ijtimoiy tabaqalanishini va dialektlar orasidagi farqlarni o'rganadi. U ijtimoiy o'zgaruvchilar tilga qanday ta'sir qilishini tizimli ravishda tahlil qilgan va sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun amaliy usullarni ishlab chiqqan. Ferdinand de Sossyur tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, uning strukturalistik yondashuv asoslarini yaratgan. Uning ishlari lingvistik belgilar va ularning ijtimoiy kontekstda ishlatilishini o'rganishga bag'ishlangan. Leonard Blumfild tilni aniq va obyektiv kuzatish asosida tahlil qiladi. U tilning fonetik va morfologik jihatlarini o'rganib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Tahlil va natija. Tilning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va tilning qanday faoliyat yuritishi haqida muhim ma'lumot beradi. Bundan tashqari, til orqali odamlar o'z ijtimoiy identifikatsiyasini qanday ifoda etishini ham yoritib beradi. Ushbu tadqiqot tilda jamiyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish uchun tasviriy yondashuvga asoslangan.

Ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalardan yig'ilib, sotsiolingvistikaning rivojlanishi va uning ijtimoiy omillar bilan qanday bog'liq ekanligini kengroq tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, jamiyatdagi turli tabaqalar, guruhlar va mintaqaviy dialektlarning tilga ta'siri chuqurroq o'rganildi. Ma'lumotlar to'plashda zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqot metodlari, jumladan, so'rovlar, kuzatuvlar va tahliliy

ishlar ham qo‘llanilgan. Bu yondashuv nafaqat sohaning tarixiy rivojlanishini, balki bugungi kunda til va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqot turli ijtimoiy omillar (jins, yosh, etnik guruh va ijtimoiy mavqe) tilga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi. Ma’lumki, sotsiolingvistika jamiyatda til qanday faoliyat yuritishini o‘rganadi. U lingvistik va ijtimoiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Ko‘plab tilshunoslar tilning jamiyatda qanday ishlashiga oid muhim yoritmalarni amalga oshirgan. Odamlar turli vaziyatlarda va turli shaxslar bilan qanday muloqot qilishlari bir-biridan farq qiladi. Tilning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi, qanday faoliyat yuritishi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida ko‘plab ma’lumot beradi.

Til nima? Nemis davlat arbobi va filologi Vilgelm fon Gumboldt tilni qat’iy bir narsa yoki obyekt sifatida emas, balki faqat nutq davomida haqiqiy bo‘ladigan o‘tkinchi jarayon sifatida ko‘rgan. Zamonaviy lingvistikani asoschisi bo‘lgan Noam Xomskiy esa tilni aqliy fenomen sifatida talqin qilgan. Jamiyat deganda nima tushuniladi? Lotincha “societas” so‘zi “ijtimoiy aloqa” ma’nosini bildiruvchi so‘zidan kelib chiqqan va odatda bir hududda yashab, umumiy qoidalar va qonunlarga amal qiladigan insonlar guruhiga nisbatan ishlatiladi. Ajoyib shaxslar bu tushuncha ustida bosh qotirib, unga turlicha ta’riflar bergan. Masalan, Aristotel uchun jamiyat shunchaki shaxslar yig‘indisi emas, aksincha, bu o‘zini-o‘zi ta’minlay oladigan va barcha a’zolari uchun umumiy bo‘lgan yaxshi hayotni ta’minlash uchun mavjud bo‘lgan hamjamiyatdir. Fransuz faylasufi va sotsiologi Ogüst Kont jamiyatni bir-biriga mos keluvchi tuzilma va funksiyalarga ega ijtimoiy organizm sifatida ko‘rgan.

Tilning jamiyatga bog‘liqligi haqidagi qarashlar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Qadimgi Yunoniston faylasuflari Platon va Aristotel, masalan, til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda ularning jamiyatdagi roli haqida savollar berganlar. Platonning “Kratil” dialogida u so‘zlarning kelib chiqishi va ularning voqelik bilan bog‘liqligini muhokama qiladi.

O‘rta asrlarda olimlar diniy matnlar kontekstida til xilma-xilligini o‘rganishni boshladilar. Keyinchalik, Uyg‘onish davrining gumanistlari, masalan, Dante Aligyeriy, tilni milliy madaniyatni ifodalash vositasi sifatida ko‘rib chiqdilar.

XIX asrda tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish muhim bosqichga chiqdi. Masalan, Jakob Grimm o‘zining “Nemis grammatikasi” asarida fonetik qonuniyatlarni o‘rganar ekan, ijtimoiy muhit til o‘zgarishlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Aleksandr Boduen de Kurtene esa til o‘zgarishlari nazariyasining asoschilaridan biri sifatida “til shaxsi” tushunchasini kiritib, til kollektivlarining rolini ta’kidladi.

Slavyan tillarini o‘rganishda Ivan Boduen de Kurtene va Gustav Gilferding ularning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratdilar. XIX asr oxirida tilni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham ko‘rish g‘oyasi paydo bo‘ldi. Shu tariqa, til va jamiyatning bir-biriga ta’sirini o‘rganish sotsiolingvistika sohasining asosi bo‘lib qolmoqda.

XX asrning boshqa muhim shaxslari orasida Bazil Bernstayn ham bor bo‘lib, u ta’lim darajasi va ijtimoiy muhit farqlariga bog‘liq bo‘lgan “cheklangan” va “rivojlangan til kodlari” tushunchasini ilgari surgan. Joshua Fishman esa bilingvizm, til siyosati va kichik tillarni saqlab qolish masalalarini o‘rgangan. U “til sohalari” konsepsiyasini ishlab chiqib, turli ijtimoiy kontekstlarda turli tillar qanday qo‘llanilishini tushuntirib bergan.

Sotsiolingvistika nafaqat an’anaviy masalalarni (dialektlar, ijtimoiy farqlar) o‘rganishda davom etmoqda, balki raqamli davrning yangi chaqiriqlariga ham javob berayotir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tuzilmalarni nafaqat aks ettirishi, balki ularni shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Labovning tadqiqotlari ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan til variatsiyalarining tizimli xarakterini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Joshua Fishmanning bilingvizm bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlari kichik tillarni saqlab qolish uchun til siyosatining muhimligini namoyon etadi. Ammo ushbu soha bir qator muammolarga ham duch keladi. Asosiy cheklovlardan biri g‘arb bo‘lmagan til jamoalarining yetarlicha o‘rganilmagani bo‘lib, bu masala yanada chuqurroq tadqiqotni talab qiladi.

Xulosa. Sotsiolingvistika fan sifatida XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va tez orada tilni ijtimoiy omillar bilan bog‘lash orqali muhim mavqega ega bo‘ldi. Dastlab, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy omillarga (ijtimoiy sinf, yosh, jins va etnik kelib chiqish) bog‘liq bo‘lgan variatsiyalarini tasvirlash va tahlil qilishga qaratilgan edi. Uilyam Labov, Joshua Fishman, Bazil Bernstayn, Ervin Goffman, Ferdinand de Sossyur va Aleksandr Boduen de Kurtene kabi olimlarning ishlari ushbu sohaning chegaralarini kengaytirib, til nafaqat ijtimoiy voqelikni aks ettirishi, balki uning qurib borishini ham ko‘rsatdi. Sotsiolingvistika bugungi kunda ham ijtimoiy voqelik va til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boduen de Kurtene, A. Umumiy tilshunoslik bo‘yicha tanlangan asarlar. M., SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963, 151-bet.

(2). Kont, A. Fuqarolik siyosati tizimi. Parij, Karillan Gehry va V.Dalmon, 1851, I jild.

(3). Xomskiy, N. Tilni bilish: uning tabiati, kelib chiqishi va qo‘llanilishi. N.Y., 1986, 34-bet.

(4). Grimm, J. Nemis grammatikasi. Göttingen. Dieterichsche Buchhandlung, 1819, I jild.

(5). Gumboldt V. Til va madaniyat falsafasi. M., 1985, 168-bet.

(6). Labov, V. Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy tabaqalanishi. Vashington, Amaliy tilshunoslik markazi, 1966, 45–100-betlar.

(7). Sossyur, F. Umumiy tilshunoslik kursi. N.Y., 1959, 69-bet.

(8). Blumfild, L. Til. N.Y., Holt, 1933, 98-bet.

(9). https://sites.google.com](https://sites.google.com.

(10). https://socialsci.libretexts.org](https://socialsci.libretexts.org.

Tursunova Mavluda Erkinovna (Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti;
e-mail: tursunovam89@gmail.com; UO‘K: 811.05)

TIL MULOQOTI MADANIYATINING TA’RIFI VA NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Til muloqoti madaniyati, muloqot va madaniy me’yorlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni hal qiluvchi sohadir. Ushbu maqolada lingvistik muloqot madaniyatining nimadan iboratligini belgilaydi va uni ma’lum qiluvchi turli nazariy asoslarini o‘rganadi. Maqolada lingvistik nisbiylik, madaniy tilshunoslik va pragmatikani o‘z ichiga olgan holda, asosiy istiqbollarni ko‘rib chiqamiz va til madaniyatining ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali shakllantirilishini ta’kidlash uchun.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik muloqot, nazariy asoslar, madaniy me’yorlar, lingvistik nisbiylik, ijtimoiy lingvistika, pragmatik qoidalar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ХАРАКТЕРИСТИКА КУЛЬТУРЫ РЕЧЕВОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация. *Языковое общение – это область, которая занимается сложными взаимоотношениями между культурой, общением и культурными нормами. В данной статье определяется, что представляет собой культура языкового общения, и исследуются различные теоретические основы, лежащие в ее основе. В статье рассматриваются ключевые аспекты, в том числе лингвистическая относительность, лингвокультурология и прагматика, чтобы подчеркнуть, как языковая культура формируется и формируется под воздействием социальных взаимодействий.*

Ключевые слова*: языковое общение, теоретические основы, культурные нормы, языковая относительность, социолингвистика, прагматические правила.*

THEORETICAL BASIS AND CHARACTERISTICS OF THE CULTURE OF SPEECH COMMUNICATION

Annotation. *Language communication culture is a field that addresses the complex relationship between communication and cultural norms. This article defines what constitutes linguistic communication culture and explores the various theoretical frameworks that inform it. The article reviews key perspectives, including linguistic relativity, cultural linguistics, and pragmatics, to emphasize that language culture is shaped and shaped by social interactions.*

Key words*: linguistic communication, theoretical foundations, cultural norms, linguistic relativity, sociolinguistics, pragmatic rules.*

Kirish. Globallashgan dunyoda samarali lingvistik muloqot turli madaniyatlarda o‘zaro tushunishni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Til muloqoti madaniyati faqat so‘z yoki gap almashish emas; u til tuzilmalari, madaniy me’yorlar, ijtimoiy kontekst va shaxsning niyatlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni o‘z ichiga oladi. Lingvistik muloqot madaniyati tilni madaniy kontekstda mazmunli qiladigan, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan o‘zaro ta’sir shakllariga ta’sir qiluvchi barcha elementlarni o‘z ichiga oladi.

Til madaniyatini o‘rganish tilshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya kabi bir qancha sohalarda ildizlarga ega bo‘lib, ularning har biri tilning madaniy doiralarda qanday ishlashini tushunishimizga yordam beradigan nazariy asoslarga ega. Ushbu maqola lingvistik muloqot madaniyatini aniqlashga va uning nazariy asoslarini o‘rganishga, uning madaniyatlararo o‘zaro ta’sir dinamikasini tushunish uchun dolzarbligini ta’kidlashga intiladi.